




BUILDERS OF THE FUTURE

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>



SLANG WORDS IN THE PERSIAN LANGUAGE AND THEIR USAGE

Muslimakhon Adkhamova

2nd-year student of the Persian-English group

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

atkhamovam@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

S. Sul-tonkhojayeva

Senior Lecturer at the Higher School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: slang words, oral communication, semantic expansion, analysis, meaning, emotion, social groups, negative connotation, metaphorical image.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: The article is devoted to the study of slang widely used in modern Persian. In the article, the meaning of each word is clarified, examples in sentences are provided, and their explanations are given. In this way, the use of slang in everyday speech and its application in various meanings are highlighted.

FORS TILIDA JARGON SO‘ZLAR VA ULLARNING QO‘LLANILISHI

Muslimaxon Adxamova

2-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

atkhamovam@gmail.com

S. Sul-tonxodjayeva

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi katta o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: jargon so‘zlar, og‘zaki muloqot, semantik kengayish, tahlil, ma‘no, emotsiya, ijtimoiy guruhlar, salbiy bo‘yoq, metaforik obraz.

Annotatsiya: Maqola zamonaviy fors tilida keng qo‘llaniladigan jargonlarni o‘rganishga qaratilgan. Maqolamizda har bir so‘zning ma‘nosi aniqlanadi, gapda misollar keltiriladi va ularning izohlari beriladi. Shu tarzda maqolamizda

ЖАРГОННЫЕ СЛОВА В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ УПОТРЕБЛЕНИЕ**Муслимахон Адхамова***Высшая школа иранистики и афганистики**Студентка 2 курса персидско-английской группы**Ташкентский государственный университет востоковедения*atkhamovam@gmail.com*Ташкент, Узбекистан***С. Султонходжаева***Старший преподаватель**Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: жаргонные слова, устная речь, семантическое расширение, анализ, значение, эмоция, социальные группы, негативная окраска, метафорический образ.

Аннотация: Статья посвящена изучению жаргона, широко используемого в современном персидском языке. В статье определяется значение каждого слова, приводятся примеры в предложениях и даются их объяснения. Таким образом, освещается использование жаргона в повседневной речи и его применение в различных значениях.

Kirish. Zamonaviy fors tilida kundalik muloqotda ishlatiladigan jargon soʻzlar yoshlar va ijtimoiy guruhlar orasida juda keng tarqalgan. Jargon soʻzlar - biror ijtimoiy guruhning oʻziga xos leksikasi, fonetikasi va grammatikasi bilan umum soʻzlashuv tili va mahalliy dialektlardan farq qiladigan til. Bu soʻzlar rasmiy nutqdan farq qiladi va tezkor muloqotda, doʻstlar yoki hamkasblar oʻrtasida qoʻllaniladi. Shuningdek, ular nutqga rang-baranglik beradi.

Butun dunyo tilshunosligida jargon soʻzlarni oʻrganish muhim, xususan, fors tilida ham bu mavzuga atroflicha ahamiyat beriladi. Chunki ular tilning qanday oʻzgarishi va jamiyatdagi qatlamlar madaniyati bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Ushbu maqola orqali biz jargonning maʼnosi, ishlatilishi va kontekstga qarab qanday oʻzgarishini oʻrganishimiz mumkin. Jumladan, tadqiqot doirasida toʻplangan quyidagi misollar asosida jargon birliklarning semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilamiz:

1) زبانم مو در آوردن — (tarjimasi: tilim soch chiqarsin) jargon soʻz sifatida “gapim havoga uchdi” maʼnosini beradi. U, asosan, koʻp gapirgandan soʻng charchash yoki natija boʻlmaslik holatini ifodalaydi. Quyida uning maʼnosi bilan tanishamiz:

! زبانم مو در آوردن از بس که گفتم و گوش نکردی

(Gapim havoga uchdi, shuncha gapirdim, eshitmading!)

Bu yerda soʻzlovchi oʻzining koʻp tushuntirganini va gaplari samarasiz boʻlganini taʼkidlab, hafsalasi pirligi va charchogʻini koʻrsatishga harakat qilgan.

2) موش بخورتت —(tarjimasi: sichqon seni yeb qoʻysin) “Seni yeb qoʻygim keladi/yoqimtoysan” degan maʼnoni bildiradi. Eronda kattalarning bolalarga buni koʻp aytayotganini eshitasiz (ayniqsa, yonoqlarini chimchilab). Lekin bu soʻzning boshqa maʼnosi ham bor, shuning uchun bu soʻzni eshitganda doim xursand boʻlish yaramaydi. Ushbu jargonning har ikki maʼnosini ham tahlil qilsak:

1. Hazil va tanbeh maʼnosi

موش بخورتت! باز شیرینیو خوردی؟

(Voy, yaramas! Yana shirinlikni paqqos tushiribsan-a?)

Bu jargon koʻpincha kulgili yoki yumshoq tanbeh sifatida ishlatiladi. Juda qattiq koyish, kamsitish maʼnosi kuzatilmaydi.

2. Mehr va erkalash maʼnosi

واااى چقدر خوشگلى تو، موش بخورتت

(Voy, qanchalar yoqimtoysan! Seni yeb qoʻygim keladi!)

موش بخورتت orqali soʻzlovchi “Seni yeb qoʻygim keladi” yoki shunchaki yoqimtoy/shirinsan soʻzlarini nazarda tutadi.

3) زهر مار — (tarjimasi: ilon zahri) fors tilida bu jargon ibora “jim boʻl” yoki “ovozingni oʻchir” maʼnosida ishlatiladi. Soʻzma-soʻz maʼnosi “ilon zahri” boʻlsa-da, nutqda suhbatni kesish yoki suhbatdoshni tinchlantirish uchun ishlatiladi. Undan quyidagicha foydalanishimiz mumkin:

چيه بابا اينقدر زنگ ميزنى به من؟

زهر مار، من كى زنگ زدم؟

(— Nega menga buncha qoʻngʻiroq qilyapsan?)

— Oʻchir ovozingni, men qachon qoʻngʻiroq qildim?)

Bu yerda زهر مار soʻzlovchi suhbatdoshining gapini kesib, uni jim qilishga harakat qilayotganini bildiradi. Sinonimlari: كوفت، مرض، درد

4) مثل آب خوردن —(tarjimasi: suv ichish kabi) bu jargon juda oson, yengil, hech qanday qiyinchiliksiz bajariladigan ishni ifodalaydi. Yaʼni biror ishni bajarish shu qadar sodda va osonki, deyarli mehnat talab qilmaydi. Gapda qoʻllanish usuli esa quyidagicha:

انگلیسی حرف زدن برایش مٓٹ آب خوردنه

(Unga ingliz tilida gapirish juda oson)

Bu yerda jargon ishning soddaligi va osonligini bildiradi, yaʼni bu ishni bajarish u uchun hech qanday qiyinchilik tugʻdirmaydi.

5) تو چشم بهم زدن — (tarjimasi: ko'zni yopganda) fors tilidagi bu jargon ibora “juda tez, bir zumda yoki ko'z ochib yumguncha” ma'nosini bildiradi. Nutqda u biror ishning juda tez yoki kutilmaganda sodir bo'lganini ifodalash uchun ishlatiladi. U ushbu usulda qo'llanadi:

تو چشم بهم زدن، همه پولم رفت

(— Ko'z ochib yumguncha, barcha pulim ketib qoldi.)

Bu yerda so'zlovchi pulning juda tez sarf bo'lganini ta'kidlamoqda, jargon ishning tez va kutilmaganda yuz berganini ko'rsatadi ko'rsatadi.

6) دست دست کردن — (tarjimasi: qo'l-qo'l qilmoq) bu jargon fors tilida biror ishni boshlash yoki qaror qabul qilishda ikkilanib, cho'zish, kechiktirish ma'nosida ishlatiladi. Ushbu birikmani ham misolda ko'rib chiqsak:

او دست دست کرد و نتوانست کار را به موقع تحویل دهد.

(U ikkilanib, cho'zdi va loyihani vaqtida topshira olmadi.)

Bu yerda jargon shaxsning qaror qabul qilishda cho'zishini, ishni kechiktirganini bildiradi. Shu sababli natija sifatida loyiha vaqtida topshirilmagani ko'rsatilgan.

7) سوتی دادن — zamonaviy fors tili jargonidagi analitik fe'l bo'lib, ixtiyorsiz, kutilmagan va ijtimoiy jihatdan kulgili yoki noqulay xatoni ifodalash uchun ishlatiladi. Quyida uning bir qancha ma'nolari bilan tanishamiz:

1. Kulgili xato qilish, uyatga qolish

توی کلاس اسم استاد رو اشتباه گفتم و حسابی سوتی داد.

(Darsda o'qituvchining ismini noto'g'ri aytib, rosa uyatga qoldi.)

Bu holatda fe'l uyat va kulgili xatoni ifodalaydi. O'quvchi o'z xatosidan juda uyali ketganini ifodalash maqsadida qo'llangan.

2. Bilmasdan sirni ochib qo'yish, oshkor bo'lish

بچه‌ها سارا رو امشب دعوت نکردم. یه وقت سوتی ندین!

“(Do'stlar, Sarani bugun kechqurunga chaqirmadim. Ehtiyot bo'linglar, tasodifan aytib yubormanglar!)”

Bu yerda nutq egasi boshqalardan xato qilmaslikni, sirni oshkor qilmaslikni iltimos qilmoqda.

8) خر شدن — fors tilidagi mazkur jargon iboraviy shaklda qo'llanilib, odatda jinni bo'lib qolmoq, o'zini g'alati tutmoq yoki ahmoqona ish qilmoq ma'nolarini bildiradi. Bu ibora kimningdir harakati mantiqsiz yoki tushunarsiz bo'lib ko'ringan holatlarda ishlatiladi. Quyida uning qo'llanilishi:

عجب خری هستیا!

(E, qanaqa laqmasan/jinnisan!)

Mazkur gapda so'zlovchi suhbatdoshining harakatidan hayratlanib yoki norozi bo'lib, unga “qanday jinnisan!” demoqda. Sinonimlari: گول خوردن va خر شدن.

9) جیگرتو بخورم — (tarjimasi: jigaringni yeyman) bu fors tilidagi jargon soʻz boʻlib, samimiy mehr va erkalash hissini ifodalaydi. U “Voy, qanday yaxshi” sifatida ishlatiladi. Mana uning qoʻllanilish usuli:

! جیگرتو بخورم، چه خوشحالی دیدمت

(Voy azizim/jonim/jigarim, seni koʻrganimdan juda xursandman!)

Jumladagi جیگرتو بخورم jargoni samimiy mehr va erkalashni ifodalaydi. Soʻzma-soʻz maʼnosi ahamiyatga ega emas; nutqda u hissiy iliqlik va yaqinlikni kuchaytiruvchi metaforik soʻz sifatida ishlatiladi.

10) آب زیر کاه — (tarjimasi: somon ostidagi suv) bu iboraviy jargon tashqaridan sokin, oddiy koʻrinadigan, lekin ichida hiyla yoki yashirin niyatga ega odamni ifodalaydi (ikkiyuzlamachi). Endi uni gapdagi maʼnosiga eʼtibor bersak:

فکر نمی‌کردم منشی شرکتمون این قدر مودبی و آبزیرکاه باشه.

)Kompaniyamiz kotibi shunchalik ayyor va ikkiyuzlamachi boʻlishini oʻylamagan edim.(

Bu gapda kompaniya kotibasi tashqi koʻrinishidan beozor, sodda boʻlsa-da, aslida uning niyati boshqa, ikkinchi yuzi boshqa boʻladi.

11) آب دیده — (tarjimasi: suv koʻrgan) fors tilidagi jargon leksema boʻlib, koʻchma maʼnoda tajribali, hayot sinovlaridan oʻtgan, chiniqqan shaxsni, yaʼni inson turli qiyinchiliklar, vaziyatlar va tajribalar orqali “chiniqqan”. Uning kontekstda qoʻllanilishini koʻrib chiqamiz:

او مردی آب‌دیده است و در شرایط سخت تصمیم‌های درستی می‌گیرد.

(U tajribali (chiniqqan) odam va qiyin vaziyatlarda toʻgʻri qaror qabul qiladi.)

Bu gapda آب‌دیده sifatdoshi shaxs turli qiyinchiliklarni boshdan kechirgan, muvaffaqiyatsizlik va muammolarni koʻrgan, shuning uchun ham vaziyatni toʻgʻri baholay oladi deb tavsiflaydi. Sinonim: سرد و گرم چشیده

12) “پدر سگ” — (tarjimasi: itning otasi) Mazkur jargon soʻz kuchli salbiy boʻyoqqa ega boʻlib, koʻpincha jahl, norozilik yoki keskin munosabatni ifodalash uchun ishlatiladi. Ayrim holatlarda yaqin doʻstlar oʻrtasida kinoyaviy yoki hazil tarzida qoʻllanishi mumkin, ammo umumiy jihatdan haqorat mazmuniga ega birlik hisoblanadi. Endi uni kontekstda koʻrib chiqsak:

او با عصبانیت گفت: پدر سگ، چرا به من دروغ گفتی؟

(Ey itvachcha, nega menga yolgʻon gapirding?)

Berilgan misolda “پدر سگ” undalma sifatida qoʻllanib, gapning hissiy ohangini kuchaytirgan. Jargonning ishlatilishi soʻzlovchining keskin noroziligi yoki gʻazabini ifodalaydi.

13) بچه ننه — (tarjimasi: onaning bolasi) bu jargon leksema boʻlib, onasiga qaram yoki ota bilan juda bogʻlangan shaxsni ifodalaydi. Eng keng tarqalgan maʼnosi: маменькин сынок (onasiga qaram, “onasining bolasi”). Shu bilan birga, diskriminatsiyani oldini olish maqsadida: папина дочка

(dadasiga qaram qiz, “dadasining qizi”) ham shu jargonning kontekstual ma’nosiga kiradi. Bu soʻz salbiy jargon turi hisoblanadi. Quyida misollar tahlilini kuzatamiz:

این پسر هیچ کاری را بدون اجازه مادرش انجام نمی ده، واقعاً بچه ننه است.

(U hech narsani onasining ruxsatisiz qilmaydi, haqiqatan ham “onasining bolasi”)

این دختر برای خرید هر چیزی با پدرش مشورت می کنه، واقعاً بچه ننه است.

(Bu qiz har qanday xaridni qilishdan oldin otasi bilan maslahatlashadi, haqiqatan ham dadasiga qaram qiz.)

Birinchi gapda oʻgʻil har qanday ishni onasining ruxsatisiz qilmaydi, yaʼni mustaqil qaror qabul qila olmaydigan boʻlsa, ikkinchi gapda qiz har bir xaridni otasi bilan maslahatlashadi, yaʼni u ham mustaqil emasligi tasvirlangan.

14) (تابلو —fransuzcha “tableau” tarjimasi: eʼlon taxtasi, lavha, yozuv osiladigan taxta) Jargon sifatida تابلو oʻzining moddiy maʼnosidan uzoqlashib, koʻzga tashlanish, oshkoralik va bilinib qolish tushunchalarini ifodalovchi birlikka aylangan. Endi uning qoʻllanishini kontekstlarda koʻrib chiqamiz:

1. Juda bilinib turadigan, yashirib boʻlmaydigan

! از کجا فهمیدی که دوستش دارم؟ - تابلونه

(Uni yaxshi koʻrishimni qayerdan bilding? — Aniq-ku!)

Bu gapda harakat yoki holat aniq, yaqqol koʻrinib turganini bildiradi. Soʻzlovchi yaxshi koʻrishini oʻzi aytmagan boʻlsa-da, uning harakatlari va oʻzini tutishi orqali bu maʼlumot aniq ekanligini koʻrsatilgan.

2. Qarama-qarshi (ironik) ishlatilish

!خیلی هم تابلو نبود

(Juda ham sezilarli emasdi!)

Bu gap ironik (qarama-qarshi) kontekstda ishlatilgan boʻlib, aslida holat juda ham bilinib turganini kinoya orqali bildiradi. Bu xususiyat تابلو ning pragmatik moslashuvchanligini koʻrsatadi.

15) (بی خیال — (tarjimasi: xayolsiz) zamonaviy fors tilida ogʻzaki nutqda juda keng ishlatiladigan idiomatik jargon boʻlib, uning asosiy maʼnosi kontekstdan kelib chiqib turlicha boʻlishi mumkin. Ularni misollar orqali oʻrganamiz:

1. Eʼtiborsiz qoldirish, ahamiyat bermaslik

به حرفش بی خیال شو

(Uning gapiga eʼtibor bermagin.)

Bu yerda jargon neytral yoki maslahat beruvchi ohangda ishlatilgan.

2. Voqea yoki vaziyatni unutish, beparvolik

این مشکل رو بی خیال، ارزش ندارد

(Shu muammoni unut, bunga arzimaydi.)

Bu ma'noda narsa yoki hodisaga befarqlikni bildiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, eronliklar nutqida jargon birliklar muhim o'rin egallab, ular kundalik muloqotni yanada jonli, tabiiy va ekspressiv qiladi. Shu bois, mazkur til qatlamini o'rganish fors tilida so'zlashuvchilarning nutqini chuqurroq anglashga hamda ular bilan samarali muloqot olib borishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada fors tilidagi jargon birliklari hamda ularning qo'llanish xususiyatlari atroflicha ko'rib chiqildi. Tadqiqot jarayonida آب زیر کاه, زبانم مو در آوردن, موش بخورتت, زهر مار, مثل آب خوردن, تو چشم بهم زدن, دست دست کردن, سوتی دادن, خر شدن, جیگر تو بخورم, آب دیده, پدر kabi jargon birliklari misol sifatida tahlil qilinib, ularning semantik mazmuni va nutqdagi funksional ahamiyati aniqlab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazari R., Daie J. Persian–English Dictionary. — 2nd ed. — North Charleston: CreateSpace Independent Publishing Platform, 2013. — 494 p.
2. Nazari R., Parvin M. 1000 Most Common Farsi Phrases: Essential Expressions for Communicating in Farsi. — CreateSpace Independent Publishing Platform, 2017. — 100 p.
3. Рубинчик Ю. А. Персидско-русский словарь: в 2 т. – Москва, 1985.
4. Quronbekov A., Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2019. – 143 b.
5. ابوالحسن نجفی. فرهنگ فارسی عامیانه. – تهران: نیلوفر، ۱۳۸۷. – ص ۱۲۱۲
6. <https://www.youtube.com/@mypersiancorner>
7. <https://www.iranopedia.com/funny-farsi-phrases>
8. <https://t.me/migfarsi>
9. <https://www.youtube.com/@PersianLearning>